ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

SHARQ ARASTUSI

Kamoliddinova Durdona
AnDU tarix fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya: O‘rta asrlar Sharq falsafasini Farobiysiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Islom dunyosining bu zabardast vakili o‘z davrining bir qator ilm sohalari, jumladan, astronomiya, mantiq, musiqa, tilshunoslik, tarbiyashunoslik, riyozat ilmlari bilan shug‘ullangan. Falsafa borasidagi fikrlari o‘rta asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrining rivojlanishida yetakchi o‘rin tutadi. Maqolada uning hayotiy faoliyati haqida mulohazalar bildirildi.
Kalit so‘zlar: Sharq falsafasi, o‘rta asrlar, ilm, renessans, olim

Abu Nasr Farobiy - o‘rta asrlarning eng ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri. Farobiy uning taxallusi bo‘lib, asl ismi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon. 873-yilda Sirdaryo bo‘yidagi Forob qishlog‘ida turkiy qabilalardan bo‘lgan harbiy xizmatchi oilasida tug‘ilgan. U tug‘ilgan hudud Somoniylar tomonidan idora etilgan.[1.61].

Forob- Toshkentning shimoliy- g‘arbidagi qadimgi voha va Shahar. Voha hozirgi Qozog‘istondagi Aris daryosining Sirdaryoga quyilish joyida, daryoning har ikkala sohilida joylashgan. joylashgan. O‘rta asr arab manbalarida “Borob”, fors manbalarida “Porob” shaklida uchraydi.[2.288].

Dastlabki bilimlarini Shosh, Samarqand, va Buxoroda oldi. So‘ngra Forobiy ilm izlab Bag‘dodga keladi. Bu davrda Bag‘dod musulmon dunyosining turli o‘lkalaridan, xususan, Markaziy Osiyodan kelgan ko‘p ilm ahllari to‘plangan edi. Forobiyning ko‘plab asarlari shu yerda yozilgan. U yerga bora turib Farobiy Eron shaharlari- Isfaxon, Hamadon, Rayda bo‘ldi. Farobiy Bag‘dodda bo‘lgan kezlarda al- Mutaddil, al-Muqtafiy, al-Muqtadir tomonidan xalifalik idora etilgan. Farobiy bu yerda o‘rta asr fani va tilining turli sohalari, yunon falsafiy maktablari bilan tanishib, o‘zga diniy e’tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo‘ldi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan yunon tili va falsafasini, Yuxanna ibn Xiylondan tabobat va mantiq ilmini o‘rgandi. Ayrim ma`lumotlarga qarganda 70dan ortiq tilni bilgan.[3.61]

Keltirilgan ma`lumotlarga qarganda olimdan 160 dan ortiq asar meros qolgan. Jumladan “Arastuning “Metafizika” asariga sharh”, “Fozil odamlar shahri”, “Musiqa haqida katta kitob”. Arab olimi Ibn Kiftiyning ma’lumotlariga ko‘ra:” Farobiy asarlarida mantiqdan foydalanish uchun tushunarli iboralar, nozik ishoralar qo‘llandi, hatto, mantiqda sharxlash, o‘rgatish va tahlil qilishdagi Kindiy va boshqa olimlar yo‘l qo‘yilgan nuqsonlarni ham ko‘rsatib o‘tdi. Ana shu jihatlari sababli Farobiy asarlari bu fan sohasida g‘oyat yetuk, nihoyatda nodir sanaladigan bo‘ldi”[1.84].

Farobiy o‘rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qamrab olgan asarlar yaratdi. U turli bilimlar nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko‘proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini ikki guruhga bo‘lish mumkin:

1. Yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ‘ib qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan asarlar.
2. Fanning turli sohalariga oid mavzuli asarlar.

Farobiy qadimgi yunon mutafakkirlari - Platon, Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa Aristotel asarlari “Metafizika”, ”Etika”, “Ritorika”, “Sofistika”ni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushunturib bera olgan. Kamchiliklarni ko‘rsatgan ayni vaqtda bu

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-4

asarlarni umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Farobiy O‘rta va Yaqin Sharq ilg‘or mutafakkirlarining dunyoqarashlarini shakllantirishda, ularni Aristotel g‘oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etgan. Abu Ali Ibn Sino Farobiyning sharhlarini (“Metafizika”-“Mobadiy tabiat”)ni o‘qib Aristotel asarlarini tushunganligini alohida ta’kidlaydi. Bu asardan keyin Farobiy “Sharq Arastusi” nomi bilan atalgan. Bundan kelib chiqadiki Farobiyning islom falsafa dunyosiga qo‘shgan hissasi bu yunon falsafa merosini olib kirishi bo‘ldi. Farobiyning fikriga ko‘ra, falsafa dunyoning boshqa joylarida nihoyasiga yetsada, lekin islomda yangi hayotni yashaydi.

Farobiy o‘z davrining ilmlari borasida shu darajada ilmga ega bo‘ldiki, o‘rta asrlarda mukammal hisoblangan ilmlar tasnifini yaratdi. U “Ilmlarning kelib chiqishi haqida”, “Ilmlarning tasnifi haqida” nomli risolalarida o‘sha davrda ma’lum bo‘lgan 30ga yaqin ilm sohalarini tasnifi va tavfsilotini bayon qilib bergan. Farobiy ilmlarni quyidagicha tasniflaydi:

1)Til haqidagi ilm (grammatika, orfografiya, she’riyat, to‘g‘ri yozuv);

2) Mantiq(8 bo‘limdan iborat bo‘lib, tushuncha, muhokama, xulosa);

3) Matematika(arifmetika, geometriya, astronomiya, mexanika va optika, sayyoralar);

4) Tabiiy ilmlar, ilohiy ilmlar yoki metafizika;

5) Shaharlar haqidagi ilm(siyosiy ilm, fiqh, pedagogika,ahloqshunoslik va kalom ilmi.)

Farobiy fanlarni tasniflashda borliq xususiyatlarining tahlilidan va ularning fanda aks etishidan kelib chiqqan.[2.290]

Olim 941-yildan Damashqda muhtojlikda kun kechira boshlaydi. Shunga qaramay olim ilm bilan shug‘ullanishni davom ettirib, falsafa va boshqa fanlar sohasida tadqiqot olib borgan. Olim Aleppo(Halab)hokimi Xamdamid iltifoti va hurmatiga sazovor bo‘ldi. Xamdamid olimlar homiysi sifatida tanilgan edi. Hokim Farobiyni o‘z saroyiga taklif qildi. Lekin u taklifni rad etadi. Shunga qaramasdan allomaning Halabdagi hayoti sermahsul bo‘ldi. Bu yerda olim o‘zining ko‘plab asarlarini yozdi. Farobiy 949-950-yillarda Misrda, keyin Damashqda yashadi. Umrining oxirgi kunlarini yerlarda o‘tkazdi. 950-yilda Damshqdagi “Bob as-sag‘ir” qabristoniga dafn etildi.[2.289].

Farobiy ilk o‘rta asrlarda, Sharq Uyg‘onish davrida ijod etdi. Bu davr ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi, hunarmandchilikning yuksalishi, yangi shaharlarning bunyod etilishi, madaniy va ma’naviy hayotning ravnaq topishi bilan ajralib turadi. Farobiyning falsafiy qarashlarida o‘sha davrning yutuq va kamchiliklari o‘z ifodasini topgan.

Farobiyning ilmiy merosi, umuman, o‘rta asr Sharqining madaniy-ma’rifiy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma’lumot beradi. Mutafakkir o‘z asarlarini o‘sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi.[3.64].

Farobiy ilmning barcha sohalarida ijod qilib, ko‘plab asarlar yozdi. XII-XIII asrlarning yirik olimi Zahiriddin al-Bayhaqiy fikricha, islom o‘lkalari olimlari orasida unga teng keladigan odam dunyoga kelgan emas. Farobiy yirik faylasuf, tilshunos, mantiqchi, riyozatchigina emas, shu bilan birga, sotsiolog, tibbiyotchi, psixolog, musiqa ilmining nazariyotchisi va amaliyotchisi hamdir. “Falsafani o‘rganishda nimalarni bilish kerak?”, “Falsafiy savollar va ularga javoblar”, “Mantiqqa kirish”, “She’r san’ati”, “Shoirlarning she’r yozish san’ati va qonunlari haqida”, “Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida”, “Aql to‘g‘risida”, “Inson a’zolari haqida risola”, “Fozil shahar odamlari qarashlari”, “Davlat haqida” kabi asarlar yozgan[5.74].

U o‘zining “Fozil shahar odamlarining qarashlari” kitobida davlatni har tomonlama yetuk, o‘zida eng yaxshi insoniy fazilatlarni namoyon qilgan kishilar yordamida boshqarish zarurligini qayd etadi. Shuningdek, u har tomonlama yetuk, aholini ilmiy-ma’rifatga olib boruvchi ideal jamiyat haqidagi fikrni olg‘a suradi. Farobiy “Fozil shahar odamlarining qarashlari” kitobida davlatni boshqaruvchi

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889,
2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

hokim Ollohdan boshqa hech kimga bo‘ysunmasligi kerak, u tabiatan o‘n ikkita xislat fazilatni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lishi zarur deydi. Shu bilan birga uning fikricha shahar hokimi bilimli, ma’rifatga havasli, taom yeyishda, ichkilikda o‘zini tiya biladigan, haq va haqiqatni sevadigan, yomonlardan jirkanadigan kishi bo‘lishi lozim. Mashhur faylasuf, ko‘p tabiiy fanlar bilimdoni bo‘lgan Al-Forobiy musiqa ilmi haqida ham asarlar yozgan, uning notalar xususidagi kitoblari o‘rta asrlardayoq lotin, ibroniy va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Xullas, Abu Nasr Farobiy mukammal yozilishi bilan bir qatorda asrlar o‘tsada o‘z nafisligini va keng qamrovliligini saqlab kelmoqda. Garchi bu asarlar o‘rganish, tadqiq qilish, tub ma’nosiga yetib borish oson bo‘lmasada, har bir izlanuvchi, Farobiy merosi ihlosmandlari uchun o‘z ahamiyati yo‘qotmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.”Буюк юрт алломалари” ikkinchi nashri. –Тошкент: O‘zbekiston,2018.
2. “Узбекистон Миллий Энциклопедияси” 9-kitob. –Тошкент:Давлат илмий нашриети, 2005.
3.”Манавият Юлдузлари”. (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломалар, адиблар). Абдулла Кодирий номидаги “Халк мероси” нашриёти. –Тошкент, 1999.
4. Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. –Toshkent, 2014.
5. Xoshimov S. Fan va texnika tarixi. –Toshkent, 2024.